

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.K.78.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MUQUMOVA GULVAR JUMAYEVNA**

**BA'ZI 3D-METALLARNING IKKI ASOSLI KARBON KISLOTALARNI  
IMMOBILLASH ASOSIDA OLINGAN POLIMER LIGANDLAR BILAN  
KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI, TUZILISHI VA XOSSALARI**

**02.00.01-Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Termiz– 2024**

**Kimyo fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) химическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the dissertation of the doctor (DSc) of chemical sciences**

**Muqumova Gulvar Jumayevna**

Ва’зи 3d-metallarning ikki asosli karbon kislotalarni immobilash asosida olingan polimer ligandlar bilan kompleks birikmalari sintezi, tuzilishi va xossalari..... 3

**Мукумова Гулвар Жумаевна**

Синтез, строение и свойства комплексных соединений некоторых 3d-металлов с полимерными лигандами на основе иммобилизации двухосновных карбоновых кислот..... 29

**Mukumova Gulvar Djumaevna**

Synthesis, structure and properties of complex compounds of some 3d-metals with polymeric ligands based on the immobilization of dibasic carboxylic acids..... 57

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 61

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.K.78.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Muqumova Gulvar Jumayevna**

**BA'ZI 3D-METALLARNING IKKI ASOSLI KARBON KISLOTALARNI  
IMMOBILLASH ASOSIDA OLINGAN POLIMER LIGANDLAR BILAN  
KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI, TUZILISHI VA XOSSALARI**

**02.00.01-Noorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Termiz– 2024**

**Kimyo fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/K192 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (tersu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Turayev Xayit Xudaynazarovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kadirova Shahnoza Abduxalilovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Ibragimov Aziz Baxtiyarovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Raxmanberdiyev Gappar Raxmanberdiyevich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.K.78.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning «30» XI 2024 yil soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 265 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «11» XI kuni tarqatildi.

(2024 yil «11» XI dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Z.Z.Yaxshiyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

**Yu.A.Geldiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, k.f.f.d.

**O.N.Ro'zimiradov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash asosidagi  
bir martalik ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., prof.

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda sanoat korxonalarining 70 foizdan ortig'ida ishlatiladigan suvlar zaharli metall ionlari bilan zararlanmoqda va buning asosiy manbalari bo'lgan ko'mirga asoslangan issiqlik elektr stansiyalari, elektroqoplama sanoati, neftni qayta ishlash zavodlari, chiqindilarni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi, tog'-kon gidrometallurgiya sanoatida, transport, oziq-ovqat va farmatsevtika kabi sanoatlardan hosil bo'ladigan og'ir metallar, organik, noorganik moddalar, bo'yoqlar, pestitsidlar kabi jiddiy ifloslantiruvchi moddalar oqova suvlar bilan daryolar, ko'llar, hovuzlar yoki drenajlarga to'g'ridan-to'g'ri tashlanmoqda. Yuqorida keltirilgan, muammolarning yechimi sifatida bugungi kunda oqova suvlarni dastlabki va ikkilamchi tozalashda, tejamkor texnologiyalar asosida kompleks hosil qiluvchi sorbentlar-polimer ligandlardan keng foydalanilmoqda. Polimer ligandlarni tabiiy materiallar, sanoat va qishloq xo'jaligining ayrim chiqindilari asosida iqtisodiy jihatdan arzon, shuningdek, tarkibida oltingugurt, kislorod, azot bo'lgan kompleks hosil qiluvchi birikmalardan olish hamda ularni sanoatning turli tarmoqlarida qo'llash zamonaviy chiqindisiz texnologiyalar asosidagi ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Jahonda polimer ligandlar sintezi va ular yordamida murakkab eritmalardan metall ionlari sorbsiyasiga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan kompleks hosil qiluvchi ligandlar sintezi, ularning fizik-kimyoviy xossalari, dinamik hamda statik sharoitda ligandlarning sorbsion sig'imini, sorbsiya-desorbsiya jarayonlariga turli omillar ta'sirini aniqlash, ular yordamida texnologik eritmalarini og'ir va zaharli metallar ionlaridan tozalash, murakkab eritmalardan metallarni ajratib olish, metallarni kompleks birikmalar ko'rinishida tanlovchan ajratish, ligandlarning turli agressiv muhitlardagi sorbsion qobiliyatlarini aniqlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatining yangi turdagi materiallar ishlab chiqarish yo'nalishida muayyan natijalarga erishilmoqda, jumladan mahalliy bozorni import o'rnini bosuvchi kimyoviy reagentlar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida"<sup>1</sup> iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zgartirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan. Bu borada milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, jumladan, kimyo sanoatini rivojlantirishda, yo'naltirilgan organik sintez asosida tanlovchan sorbentlar – polimer ligandlar olish va ular yordamida d-metallar sorbsiyasida hosil

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

bo'ladigan kompleks birikmalarni tadqiq etish dolzarb vazifalardan bo'lib, muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3246-son "Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-son "Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo'lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

#### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Ba'zi 3d-metallarning ikki asosli karbon kislotalarni immobillash asosida olingan polimer ligandlar bilan kompleks birikmalari sintezi, tuzilishi va xossalarini aniqlash, immobillangan ligandlar asosidagi sorbsion sistemalar olish, shuningdek, ushbu sorbsion sistemalarning real obyektlarda turli metall ionlarini sorbsiyalashda qo'llanilishi bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, jumladan: Pensilvaniya shtat universiteti ekotizim fanlari va menejmenti va materiallar tadqiqot instituti (AQSh), Toronto universiteti (Kanada), Jiangsu universitetining kimyo va kimyoviy muhandislik maktabi (Xitoy), Koreya universitetining atrof-muhit muhandisligi instituti (Janubiy Koreya), Veer Narmad Janubiy Gujarat universiteti (Hindiston), Leyden kimyo instituti (Gollandiya), Baku davlat universiteti (Ozarbayjon), Ivanovo davlat kimyo va texnologiya universiteti (Rossiya), Belarus Milliy Fanlar akademiyasining Fizikaviy organik kimyo instituti (Belarusiya), A.B.Bekturov nomidagi kimyo instituti (Qozog'iston), O'zbekiston Milliy universiteti, O'zR FA umumiy va noorganik kimyo instituti, Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti (O'zbekiston).

Ba'zi d-metallar ionlarini tarkibida O,N,S donor atomlari bo'lgan birikmalarni polimer matritsalariga immobillash asosida olingan polimer ligandlar bilan kompleks hosil qilishi, xossalarini aniqlash hamda real ob'ektlarda qo'llash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar davomida quyidagi bir qator natijalar olingan, jumladan, ba'zi d- va f-metallar ionlarining 2-propenilfenol va formaldegid asosida sintez qilingan karboksilatli sorbentlarda kompleks hosil qilib sorbsiyalanishi aniqlangan (Baku davlat universiteti, Ozarbayjon), og'ir metal ionlarining xitozanning karboksilatli hosilalariga tanlovchan sorbsiya jarayoni ilmiy asoslangan (Jiangsu universitetining kimyo va kimyoviy muhandislik maktabi, Xitoy), salitsil kislotaga, 8-

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com> va boshqa manbaalar materiallari asosida tayyorlangan.

oksixinolin kabi ligandlarni immobillash asosida olingan sorbentlarda Cu (II), Ni (II), Zn (II), Cd (II) ionlari sorbsiyasining maqbul sharoitlari aniqlangan (Veer Narmad South Gujarat University, Hindiston), modifikatsiyalangan poliakrilonitril asosida sorbentlar olingan va ular yordamida nodir metallar sorbsiyasi qonuniyatlari ochib berilgan (Gaziantep University, Turkiya), N-aril-3-aminopropion funksional guruhli xelat hosil qiluvchi sorbentlar olingan va kompleks hosil qiluvchi reagentlarni xitozan matritsaga kovalent immobillash asosida olingan sorbentlarning xossalari aniqlangan (Ural federal universiteti, Rossiya), immobillangan azoreagentlar yordamida real obyektlar tarkibidagi turli metall ionlarini miqdoriy aniqlashning sorbsion-spektrofotometrik va sorbsion-atom-absorbsion usullari ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston).

Dunyoda tarkibida kislorod, azot, oltingugurt bo‘lgan kompleks hosil qiluvchi birikmalarni polimer matritsalariga immobillash asosida olingan tanlovchan polimer ligandlar yordamida d-metallar ionlarini turli eritmalaridan kompleks hosil qilib sorbsion ajratish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, olingan kompleks hosil qiluvchi polimer ligandlarning fizik-kimyoviy xossalarini, ular tarkibidagi o‘rinbosarlar tabiatining hosil bo‘lgan kompleks birikmalar barqarorligiga ta‘sirini aniqlash, metall-sorbent sistemalarining hosil bo‘lish jarayonini modellash yordamida metall ionlarini murakkab eritmalaridan tanlovchan ajratish imkonini beruvchi sorbsion sistemalarni ishlab chiqish.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijda immobillangan polimer ligandlar sintezi va ularning oraliq metallar bilan sorbsiya jarayonida olingan koordinatsion birikmalariga doir tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, D.K.Singh, Wang Jinnan, A.Wołowicz, S.Tong kompleks hosil qiluvchi turli analitik reagentlar asosidagi sorbentlar sintezini, M.H. Morcali, R.P.Kusy, M.Murakami, D.Mendil, P.P.Coetzee kabi yetuk olimlar shuningdek, MDH ning bir qator dunyo e’tirof etgan olimlaridan N.G.Polyanskiy, G.V.Myasoyedova, L.K.Neudachina, L.A.Pimneva, A.V.Davankov, Y.A.Kokotov, N.N.Basargin, D.V.Salixov, O.V.Kichigin., V.F.Borbat kabi olimlar kompleks va xelat hosil qiluvchi ionit hamda sorbentlar sintezi, ularning oraliq d-metallar bilan sorbsiyalash, ajratish usullarini va sorbsiyada hosil bo‘lgan kompleks birikmalarini o‘rganganlar.

Mamlakatimizda kompleks birikmalarning sintezi, tuzilishi va xossalarining tadqiqot ishlari bilan akademiklar N.A.Parpiyev, B.T.Ibragimov, professorlar: X.X.Xakimov, X.T.Sharipov, O.F.Xodjayev, T.A.Azizov, A.A.Shabilolov, B.B.Umarov, X.X.Turayev, Sh.A.Kadirova, Z.Ch.Kadirova, Sh.Sh.Daminova, A.B.Ibragimov, J.M.Ashurov va Sh.A.Kasimov kabi olimlar shug‘ullanganlar.

Ular tomonidan kompleks hosil qiluvchi sorbentlarning oraliq metallar analizida qo‘llanilishi, sorbsiya jarayonida hosil bo‘lgan koordinatsion birikmalarining tuzilishi va xossalari tahlil qilingan. Lekin xelat hosil qiluvchi polimer ligandlarning oraliq metallar ionlari bilan hosil qilgan koordinatsion birikmalari va ularning tuzilishi yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F-7-28

«To'rtlamchi azot va fosfor birikmalari asosida binar ekstragentlar sintezi va ularning nodir metallar bilan koordinatsion birikmalari» (2012-2016 yy.) va ITD-12 OT-F7-34 «Kompleks hosil qiluvchi polifunksional ionitlar sintezi va ular yordamida ba'zi d-metallarni ajratishning nazariy asoslari» (2017-2020 yy.) mavzusidagi fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ba'zi 3d-metallarning ikki asosli karbon kislotalarni polimer matritsaga immobillash asosida olingan polimer ligandlar bilan kompleks birikmalarining sintezi, ularning tuzilishi va xossalarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ikki asosli karbon kislotalar - butandikislota va 2,3-digidroksibutandikislotalarni karbamidformaldegid, tiokarbamidformaldegid va melaminformaldegid matritsalariga immobillash asosida polimer ligandlar sintez qilish;

sintez qilingan polimer ligandlar asosidagi sorbentlarda Cu (II), Zn (II) va Ni (II) ionlari sorbsiyasining maqbul sharoitlarini aniqlash;

Cu (II), Zn (II) va Ni (II) ionlarining olingan polimer ligandlar bilan sorbsiya jarayonida hosil bo'lgan kompleks birikmalarida koordinatsion markazlarni kvant-kimyoviy hisoblash usullari yordamida tahlil qilish;

sintez qilingan polimer ligandlar va olingan kompleks birikmalarida infraqizil (IQ), Raman spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskop (SEM), termogravimetrik (TGA) va differensial termik tahlil (DTA) usullari yordamida tarkib-tuzilish bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlash;

suvli eritmalarda kompleks hosil bo'lishiga pH, harorat va Cu (II), Zn (II) va Ni (II) ionlari konsentratsiyasining ta'sirini nazariy asoslash;

Cu (II), Zn (II) va Ni (II) ionlarining polimer ligandlar bilan sorbsiya jarayonida hosil bo'lgan kompleks birikmalarining konsentratsion barqarorlik doimiyliklarini aniqlash;

Cu (II), Zn (II) va Ni (II) ionlarining polimer ligandlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining barqarorligiga desorbsiya jarayonida mineral kislotalar konsentratsiyalarining ta'sirini aniqlash;

sintez qilingan polimer ligandlar asosidagi sorbentlarni sanoat chiqindi eritmalarini Cu (II), Zn (II) va Ni (II) ionlaridan kompleks birikmalar hosil qilish yordamida sorbsion tozalash uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i Cu (II), Zn (II) va Ni (II) ionlarining ikki asosli karbon kislotalar - butandikislota va 2,3-digidroksibutandikislotalarni karbamidformaldegid, tiokarbamidformaldegid va melaminformaldegid matritsalariga immobillash asosida olingan polimer ligandlar bilan kompleks birikmalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** olingan immobillangan ligandlarning eritmada kompleks hosil qilish jarayoni, sintez qilingan kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi va ularning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda UB-, IQ-, Raman spektroskopiya, termogravimetrik, differensial termik tahlil, skanerlovchi elektron mikroskopiya (sirt morfologiyasi, element tahlili), spektrofotometr, potensiometrik titrlash, kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

karbamidformaldegid, tiokarbamidformaldegid, melaminformaldegid matritsalariga butandikislota va 2,3-digidroksibutandikislotalarni immobillash asosida 6 ta polimer ligandlar olingan;

Cu(II), Zn(II), Ni(II) ionlarining olingan polimer ligandlar bilan kompleks birikmalari sorbsiya usuli yordamida sintez qilingan;

polimer matrisaga immobillangan polimer ligandlar molekularining elektron tuzilishi ularning geometrik parametrlari, energetik tavsiflari hamda zaryad tekshiruvi asosida koordinatsion bog'ning eng katta lokallanish markazlari kvant-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan;

immobillangan polimer ligandlar va ular asosida olingan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari infragizil (IQ), Raman spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskop (SEM), termogravimetrik (TGA) va differensial termik tahlil (DTA) usullari yordamida tarkib-tuzilish-xossa bo'yicha bog'liqlik qonuniyatlari aniqlangan;

Cu(II), Zn(II), Ni(II) ionlari xloridli, nitratli, sulfatli tuzlarining polimer ligandlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining barqarorlik doimiyliklari  $Ni(II) < Zn(II) < Cu(II)$  qatorida ortib borishi Irving-Vilyams qatoriga mos kelishi isbotlangan;

Cu (II), Zn (II) va Ni (II) ionlarining polimer ligandlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalari barqarorligining mineral kislotalarning yuqori konsentratsiyali eritmalarida (1-3 M) kamayishi va desorbsiya jarayoni uchun maqbul sharoitlar aniqlangan;

immobillangan polimer ligandlar asosidagi sorbentlarni sanoat chiqindi eritmalarini Cu (II), Zn (II) va Ni (II) ionlaridan kompleks birikmalar hosil qilish yordamida sorbsion tozalash uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

tarkibida azot, kislorod va oltngugurt saqlagan karbamid, tiomochevina, formaldegid, qahrabo kislota va vino kislota asosida olti turdagi yangi immobillangan ligandlar olingan;

immobillangan ligandlarning sorbsiyalash jarayoniga harorat, dastlabki moddalar nisbati, reaksiya davomiyligining ta'siri aniqlangan va immobillangan ligandlar olish uchun maqbul sharoitlar tanlangan;

olingan immobillangan ligandlarning Cu(II), Zn(II) va Ni(II) ionlariga nisbatan statik va dinamik almashinish sig'implari individual hamda aralash eritmalaridan aniqlangan;

immobillangan ligandlar asosida sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibi va tuzilishi IQ-, Raman spektroskopiya, SEM, termik barqarorligi differensial termik va termogravimetrik tahlil usullari yordamida isbotlangan;

olingan polimer sorbentlarning sorbsiya jarayonida hosil bo'lgan kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi, suvli eritmalaridagi konsentratsion barqarorlik doimiyliklari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Sintez qilingan birikmalarning tarkibi va tuzilishi element tahlili, IQ-spektroskopiya, differentsial skanerlovchi kalorimetriya, skanerlovchi elektron mikroskopiya (fotosurati, element tahlili),

kvant-kimyoviy hisoblash kabi zamonaviy usullar yordamida eksperimental natijalar olinganligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kompleks hosil qiluvchi yangi immobillangan ligandlar olish usullarining ishlab chiqilganligi, olingan ligandlarning Cu(II), Zn(II) va Ni(II) ionlari bilan kompleks birikmalar hosil qilishining maqbul sharoitlari, reaksiya jarayonida hosil bo'ladigan metallkomplekslarining tuzilishi va kompleks hosil qilish qobiliyati aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati karbamidformaldegid, tiokarbamidformaldegid, melaminformaldegid matritsalariga butandikislota va 2,3-digidroksibutandikislotalarni immobillash asosida olingan polimer ligandlar va ular asosidagi sorbentlar yordamida sanoat eritmalari tarkibidagi Cu(II), Zn(II) va Ni(II) ionlarini kompleks hosil qilish asosida sorbsiya-desorbsiya usullari bilan ajratish hamda sanoat oqava suvlarini tozalashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarkibida azot, kislorod va oltinugurt bo'lgan karbamid, tiokarbamid, formaldegid matritsaga ayrim ikki asosli karbon kislotalarni immobillab olingan kompleks hosil qiluvchi polimer ligandlar va ular asosidagi sorbentlarning qo'llanilishi bo'yicha olingan natijalar asosida:

butandikislota va 2,3-digidroksibutandikislotalarni karbamidformaldegid, tiokarbamidformaldegid, melaminformaldegid matritsalariga immobillash asosida olingan kompleks hosil qiluvchi polimer ligandlar "Petromaruz-Uzbekistan" xorijiy korxonasida oqava suvlarni sorbsion tozalashda qo'llanilgan ("Petromaruz-Uzbekistan" xorijiy korxonasining 2024 yil 27 avgust EKO-306-son ma'lumotnomasi). Natijada, oqava suvlarni tozalashda improt o'rnini bosuvchi, yuqori samarali, mahalliy xomashyolar asosida olingan sorbentlardan foydalanish imkonini bergan;

sintez qilingan kompleks hosil qiluvchi polimer ligandlar asosida olingan sorbentlar "Petromaruz-Uzbekistan" xorijiy korxonasida oqava suvlardan Cu (II), Zn (II) va Ni (II) metall ionlarini sorbsion ajratishda qo'llanilgan ("Petromaruz-Uzbekistan" xorijiy korxonasining 2024 yil 27 avgust EKO-306-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'p komponentli eritmalaridan ayrim 3d-metall ionlarini ajratish imkonini bergan;

ikki asosli karbon kislotalarni polimer matrisalariga immobillash yordamida olingan polimer ligandlar asosidagi sorbentlar sanoat oqava suvlarini og'ir metallar ionlaridan tozalashda "Petromaruz-Uzbekistan" xorijiy korxonasida amaliyotga joriy etilgan ("Petromaruz-Uzbekistan" xorijiy korxonasining 2024 yil 27 avgust EKO-306-son ma'lumotnomasi). Natijada, oqava suvlarni og'ir metallar ionlaridan ruxsat etilgan konsentratsiyasining o'ndan bir ulushigacha samarali tozalash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:** Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta xalqaro va 17 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi:** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 49 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 188 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoni yechishdagi ahamiyati va zaruriyati asoslangan, ilmiy tadqiqot ishining maqsad va vazifalari, tadqiqot obyektlari va predmeti berilgan hamda tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, ilmiy tadqiqot ishidan olingan natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosalar qilingan hamda tadqiqot ishi asosida chop qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kompleks hosil qiluvchi immobillangan ligandlar sintezi va ularning metallar bilan koordinatsion birikmalari**» deb nomlangan birinchi bobida asosan kompleks hosil qiluvchi polifunksional ligandlar va ularning ahamiyati, tarkibida kislrod, azot, oltingugurt bo‘lgan ionitlar sintezining fizik-kimyoviy asoslari keltirilgan hamda adabiyotlar qiyosiy tahlil qilingan. Eritmalardan ayrim d-metallar ionlarini kompleks hosil qilish yo‘li bilan sorbsiyalashga va oqava suvlarni tozalashga doir ilmiy manbalar tahlil qilingan. Ligandlarni organik polimer matritsalariga kovalent immobillash usullari, immobillangan ligandlar asosidagi sorbentlar, ularning o‘ziga xosligi va kompleks birikmalarining tuzilishini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan va eritmalardan rangli hamda nodir metallar ionlarini kompleks hosil qiluvchi immobillangan ligandlar asosida olingan sorbentlar yordamida sorbsiyalash, shuningdek, sorbsiya jarayonida hosil bo‘ladigan koordinatsion birikmalar tadqiqotiga doir adabiyotlar sharhi keltirilgan. Adabiyotlardagi ma‘lumotlarni tanqidiy tahlil qilish asosida dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari aniqlangan.

Dissertatsiyaning «**Immobillangan polimer ligandlarning olinishi, ularning ba’zi 3d-metallar bilan kompleks birikmalari sintezi va tadqiqoti**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari va analizning zamonaviy usullari ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot usullari hamda karbamid, tiokarbamid, melaminformaldegid smolasini ikki asosli organik kislotalar - butandikislota va 2,3-digidroksi-butandikislota bilan modifikatsiyalash asosida polimer ligandlar sintezi yoritilgan. Immobillash asosida olingan polimer sorbentlarning Cu(II), Ni(II), Zn(II) ionlariga nisbatan ststik almashinish sig‘imini (SAS), sorbsiya jarayonida hosil bo‘lgan koordinatsion birikmalarining eritmadagi barqarorlik doimiyliklarini hamda ligand – eritma sistemasida muvozanat hosil bo‘lish vaqtini aniqlash usullari keltirilgan.

Karbamid-, tiokarbamid-, melaminformaldegid matritsalariga qaprabo va vino kislotalarni kovalent immobillash, ularning tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari, ekspluatatsion tavsiflari, shuningdek, kimyo sanoati korxonalarining tarkibida metall ionlarini tutgan chiqindi suvlarini tozalash uchun amalda foydalaniladigan


aniq obyektlarni izlab topish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra quyidagi sorbentlar olindi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Butandikislota va 2,3-digidroksibutandikislota karbamid-, tiokarbamid-, melaminformaldegid matritsalariga immobillash natijasida olingan polimer ligandlar**

No	Ikki asosli kislota nomi	Matritsa	Polimer ligand nomi	Sorbent	Cu <sup>2+</sup> ioni bo‘yicha SAS, mg-ekv/g
1	Butandikislota	Karbamid-formaldegid	poli-1,3-dioksimetil-5-N-oksimitilkarbamino-1,3,5-triazinon-2 trisuksinat	KFQ	5,6
2	2,3-digidroksi-butandi-kislota	Tiokarbamid-formaldegid	poli-1,3-dioksimetil-5-N-oksimitiltiokarbamino-1,3,5-triazinon-2 tritartrat	TKFV	8,2
3	Butandikislota	Melamin-formaldegid	poli-2,4,6-trioksimetil-aminotriazin-1,3,5 trisuksinat	MFQ	7,6
4	2,3-digidroksi-butandikislota	Karbamid-formaldegid	poli-1,3-dioksimetil-5-N-oksimitilkarbamino-1,3,5-triazinon-2 tritartrat	KFV	5,8
5	Butandikislota	Tiokarbamid-formaldegid	poli-1,3-dioksimetil-5-N-oksimitiltiokarbamino-1,3,5-triazinon-2 trisuksinat	TKFQ	5,7
6	2,3-digidroksi-butandikislota	Melamin-formaldegid	poli-2,4,6-trioksimetil-aminotriazin-1,3,5 tritartrat	MFV	6,4

**Immobilangan KFQ ligandining sintezi.** Tarkibida azot va kislorod saqlagan polimer ligand sintezi uchun qaytar sovutgich va avtomatik aralashtirgich o‘rnatilgan uch og‘izli kolbada 1,2 g (0,02 mol) karbamid 4 ml (0,05 mol) formalinda eritildi va pH=8-9 bo‘lgunga qadar ammoniy gidroksid eritmasi qo‘shildi.



**1-sxema. Immobilangan KFQ polimer ligandining sintezi reaksiyasi.**

**Melamin, formalin va qahrabo kislotasi asosidagi xelat hosil qiluvchi sorbent sintezi.** 2,52 g (0,02 mol) melamin 5 ml (0,06 mol) formalinda eritildi va pH=8 bo'lgunga qadar NH<sub>4</sub>OH eritmasi qo'shildi. Harorat 80-90°C da qavushqoq massa hosil bo'lgungacha qizdirildi. Hosil bo'lgan qovushqoq aralashmaga 3,54 g (0,03mol) qahrabo kislotani 5 ml NH<sub>4</sub>OH dagi eritmasidan tomchilatib qo'shildi va aralastirildi. Harorat 100-120°C ga ko'tarilganda qattiq yoki saqichsimon massa hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan smolasimon massa chinni kosachaga solindi va quritish shkafida 95°C haroratda 20 soat davomida quritildi. Quritilgan polimer maydalangach, past molekulyar og'irlikdagi moddalardan dastlab 5% li NaOH eritmasi bilan, so'ngra bir necha marotaba distillangan suv bilan neytral holga kelguncha yuvildi. Natijada kichik g'ovaklardan iborat oq rangli donador massa hosil bo'ldi. Mahsulot unumi 93% ni tashkil etdi.

MFQ polimer ligandini sintez qilishda melamin, formalin va qahrabo kislotaning polikondensatsiya jarayoniga haroratning ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Polikondensatsiya jarayoni 100, 110, 120 va 130°C haroratlarda o'rganildi. Shu bilan birga, reaksiyaning vaqtga bog'liqligi, sorbentning suvdagi solishtirma hajmi va 0,1 n NaOH eritmasi uchun statik almashinish sig'imi (SAS) qiymati aniqlandi (2-jadval). 2-jadval va 1-rasmda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, 100°C haroratda polikondensatsiya reaksiyasining davomiyligi 5-6,5 soat, ion almashinuvchining almashinish sig'imi 2,8 mg-ekv/g ekanligi aniqlandi. Bu ma'lum bir haroratda reaktivlarning past faolligi bilan bog'liq.

## 2-jadval


### Polikondensatsiya reaksiyasi haroratining polimer ligand xossalariga ta'siri

№	Reaksiya harorati T, °C	Reaksiya vaqti τ, soat	Suvda bo'kkan H shakldagi sorbentning solishtirma hajmi ml/g	SAS, 0,1 n NaOH eritmasi mg-ekv/g bo'yicha
1.	100	5-6,5	1,7	2,8
2.	110	4,5-5	1,5	3,2
3.	120	2,5-3	1,2	3,9
4.	130	1,5-2	1,1	3,8


Reaksiya haroratining 130°C gacha ko'tarilishi bilan polikondensatsiya reaksiyasi tez davom etadi va reaksiya vaqti 1,5-2 soatgacha kamayadi, shu bilan birga almashinish sig'imining qiymati va ion almashinuvchining bo'kkanlik darajasi ham kamayadi. Bu ko'rinishidan ma'lum bir haroratda hosil bo'lgan ion almashinuvchining strukturasi zichroq bo'lib, buning natijasida ionogen guruhlarning harakatchanligi qiyinlashadi.

Polikondensatlanish reaksiyasi uchun maqbul harorat sifatida 120°C olindi, reaksiya vaqti 2,5-3 soat, reaksiya bir xilda bo'ladi va 0,1 n NaOH eritmasi uchun almashinish sig'imi 3,9 mg-ekv/g qiymatiga ega ekanligi aniqlandi.

Dastlabki moddalar nisbatining polimer ligand sorbsion xossalariga bog'liqligi o'rganildi. Polikondensatsiya reaksiyasida reaktivlarning ya'ni, melamin, formalin va qahrabo kislotalar mos ravishda 1:3:0,5 dan 1:3:2 gacha mol nisbatlarda olindi. Qahrabo kislotani miqdorining MFQ xususiyatlariga ta'sirini o'rganish natijalari 3-jadvalda keltirilgan.



**1-rasm. Sintez qilingan MFQ polimer ligandining SAS ining haroratga bog‘liqlik grafigi.**



**2-rasm. MFQ polimer ligandi SAS ining dastlabki moddalar mol nisbatiga bog‘liqlik diagrammasi.**

3-jadval va 2-rasmda keltirilgan natijalarga ko‘ra melamin, formalin va qahrabo kislotasining 1:3:1,5 nisbatida eng yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan polimer ligand olindi. Polimer ligandning 0,1 n eritmadagi statik almashinish sig‘imi Cu(II)=3,85 mg-ekv/g, Zn(II)=3,95 mg-ekv/g va Ni(II)=3,84 mg-ekv/g ni tashkil etdi.

**3-jadval**

**Dastlabki moddalar nisbatining polimer ligand sorbsion xossalariga ta‘siri**

Melamin, formalin va qahrabo kislotaning nisbati, mollarda	Reaksiya unumi, %	Statik almashinish sig‘imi, mg-ekv/g, 0,1 n eritmalar:		
		Cu <sup>2+</sup>	Zn <sup>2+</sup>	Ni <sup>2+</sup>
1:3:0.5	91	5,33	5,62	5,45
1:3:1	92	7,6	7,2	6,8
1:3:1,5	93	4,85	4,95	4,84
1:3:2	85	3,7	3,8	3,7

**KFV polimer ligandining sintezi.** Tarkibida azot va kislorod saqlagan polimer ligand sintezi uchun qaytar sovutgich va avtomatik aralashtirgich o‘rnatilgan uch og‘izli kolbaga 1,2 g (0,02 mol) karbamid 4 ml (0,05 mol) formalinda eritildi va pH=8-9 bo‘lgunga qadar ammoniy gidroksid eritmasi qo‘shildi. Harorat 70-80°C da qovushqoq massa hosil bo‘lgungacha qizdirildi. Hosil bo‘lgan qovushqoq aralashmaga 1,5 g (0,01 mol) vino kislotani 5 ml ammoniy gidroksidagi eritmasidan tomchilatib qo‘shildi va aralashtirildi. Harorat 110-140°C ga ko‘tarilganda qattiq yoki saqichsimon massa hosil bo‘ldi. Hosil bo‘lgan smolasimon massa chinni kosachaga solindi va 100°C haroratda quritish shkafida 20 soat davomida quritildi. Quritilgan polimer maydalangach, past molekulyar og‘irlikdagi moddalardan dastlab 5% li natriy ishqor eritmasi bilan, so‘ngra bir necha marotaba distillangan suv bilan neytral holga kelguncha yuvildi. Natijada kichik g‘ovaklardan iborat oq rangli donador massa hosil bo‘ldi. Mahsulot unumi 90% ni tashkil etdi.

**TKFQ ligandining sintezi.** Tarkibida azot va kislorod saqlagan polimer ligand sintezi uchun qaytar sovutgich va avtomatik aralashtirgich o‘rnatilgan uch og‘izli kolbaga 1,52 g (0,02 mol) tiokarbamid 4 ml (0,05 mol) formalinda eritildi va pH=8-9 bo‘lgunga qadar ammoniy gidroksid eritmasi qo‘shildi. Harorat 70-80°C da qovushqoq massa hosil bo‘lgungacha qizdirildi. Hosil bo‘lgan qovushqoq

aralashmaga 1,18 g (0,01mol) qahrabo kislotani 5 ml ammoniy gidroksiddagi eritmasidan tomchilatib qo‘shildi va aralashtirildi. Harorat 110-140°C ga ko‘tarilganda qattiq yoki saqichsimon massa hosil bo‘ldi. Hosil bo‘lgan smolasimon massa chinni kosachaga solindi va 100°C haroratda quritish shkafida 20 soat davomida quritildi. Quritilgan polimer maydalangach, past molekulyar og‘irlikdagi moddalardan dastlab 5% li natriy ishqor eritmasi bilan, so‘ngra bir necha marotaba distillangan suv bilan neytral holga kelguncha yuvildi. Natijada kichik g‘ovaklardan iborat oq rangli donador massa hosil bo‘ldi. Mahsulot unumi 91% ni tashkil etdi.

**Immobilangan MFV ligandining sintezi.** Polikondensatsiya reaksiya tipidagi polimer ligand olingan bo‘lib, u ligandlar xususiyatlarini sistemaga solishga va ularga effektiv ish faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan. Boshlang‘ich moddalarning tuzilishi va xossalarning polimer ligandning tuzilishi hamda xususiyatlariga ta‘sirini aniqlash shu bilan birgalikda yuqori samarali xususiyatlarga ega bo‘lgan ion almashinuvchini sintez qilish variantlarini tanlash, dastlabki moddalar nisbati ta‘siri ion almashtirgichni tayyorlashda o‘rganildi. Tiokarbamid, formalin va qahrabo kislotaning bilan o‘zaro ta‘sir qilganda, nafaqat kondensatsiya qiluvchi, balki o‘zaro bog‘lovchi vositadir hamda olingan ion almashinuvchining asosiy sorbsion va fizik-kimyoviy xususiyatlari uning konsentratsiyasiga bog‘liq. Turli xil mol nisbatda olingan melamin, formalin va vino kislotaga o‘zaro bog‘langan ion almashinuvchini olish uchun ion almashinuvchining turli namunalari sintez qilindi. Vino kislotaga miqdorining ion almashinuvchi MFV xususiyatlariga ta‘sirini o‘rganish natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

#### 4-jadval

#### Ion almashinuvchining sorbsion xossalarning reaktivlar nisbatiga bog‘liqligi


Melamin, formalin va vino kislotasining nisbati, mollarda	Reaksiya unumi,%	Statik almashinish sig‘imi, mg-ekv/g, 0.1 N eritmalar:		
		Cu <sup>2+</sup>	Zn <sup>2+</sup>	Ni <sup>2+</sup>
1:3:0.5	89	3,03	3,32	3,15
1:3:1,0	90	3,05	3,41	3,26
1:3:1,5	91	3,55	3,65	3,54
1:3:2	87	3,2	3,3	3,2

Polikondensatsiya reaksiyasi reaktivlarning, ya‘ni melamin, formalin va vino kislotaga mos ravishda 1:3:0,5 dan 1:3:2 gacha mol nisbatida amalga oshirildi. 3-jadval va 3-rasmda keltirilgan natijalarga ko‘ra mos ravishda melamin, formalin va vino kislotasining 1:3:1,5 nisbatida eng yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan ion almashtirgichlar olindi. Metall ionlarining 0,1n eritmadagi statik almashinish sig‘imi Cu (II) 3,55 mg-ekv/g, Zn (II) 3,65 mg-ekv/g va Ni (II) 3,54 mg-ekv/g ni tashkil etdi.


4-rasmda keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, polikondensatlanish uchun maqbul harorat sifatida 120°C olindi, reaksiya vaqti 2,5-3 soat, reaksiya bir xilda bo‘ladi va 0,1 n NaOH eritmasi uchun almashinish sig‘imi 3,6 mg-ekv/g qiymatiga ega ekanligi aniqlandi.

**TKFV polimer ligandining sintezi.** Tiokarbamid, formalin va vino kislotaga (TKFV) polikondensatsiyasi reaksiyasiga maqbul harorat ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Polikondensatsiya reaksiya jarayoni: 110, 120, 130

va 140°C haroratlarda o'rganildi. Izlanishlar davomida reaksiyaning vaqtga bog'liqligi, ligandning suvdagi solishtirma hajmi va 0,1 n NaOH eritmasi uchun statik almashinish sig'imi (SAS) qiymati aniqlandi. Ma'lumotlar 4-jadvalda keltirilgan.



**3-rasm MFV polimer ligandi SASi ining dastlabki moddalar mol nisbatiga bog'liqlik diagrammasi.**




**4-rasm. MFV polimer ligandi SASi ning haroratga bog'liqlik grafigi.**

**5-jadval**

**Polikondensatsiya reaksiyasiga haroratining ion almashinuvchi xossalari ta'siri**

№	Reaksiya harorati T, °C	Reaksiya vaqti τ, soat	Maxsus hajm suvda bo'kkan ligand H shakli, ml/g	SAS, 0,1 n NaOH eritmasi mg-equiv/g bo'yicha
1	110	5-6,5	1,8	3,8
2	120	4,5-5	1,6	4,3
3	130	2,5-3	1,3	5,8
4	140	1,5-2	1,2	4,6



**5-rasm. TKFV statik almashinish sig'imini haroratga bog'liqlik grafigi**

5-jadval va 5-rasmda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, 110°C haroratda polikondensatsiya reaksiyasining davomiyligi 5-6,5 soat, ligandning statik almashinish sig'imi TKFV uchun 3,8 mg-equiv/g ekanligi aniqlandi. Bu ma'lum bir haroratda reaksiya uchun olingan reaktivlarning past faolligi bilan bog'liq. Reaksiya haroratining 140°C gacha ko'tarilganda polikondensatsiyalanish reaksiyasi

tezligi ortadi, shu bilan birgalikda reaksiyaga sarflangan vaqt 1,5-2 soatgacha kamayadi, shu bilan bir qatorda statik almashinish sig'imining qiymati hamda ion almashinuvchining bo'kkanlik darajasi ham kamayadi. Bundan shunday xulosa qilindiki, ma'lum bir haroratda hosil bo'lgan ion almashinuvchining strukturasi

zichroq bo‘lib, buning natijasida ionogen guruhlarning harakatchanligi qiyinlashadi. Olib borilgan izlanishlar natijasida polikondensatlanish reaksiyasi uchun maqbul harorat deb 130°C olindi, reaksiya vaqti 2,5-3 soat va 0,1 n NaOH eritmasi uchun almashinish sig‘imi 5,8 mg-ekv/g qiymatiga ega ekanligi aniqlandi.

Metall ionlarining 0,1n eritmadagi statik almashinish sig‘imi aniqlandi, olingan natijalar 6-jadvalda berilgan.

## 6-jadval

### Sintez qilingan polimer ligandlarning metall ionlari bo‘yicha statik almashinish sig‘imi

№	Ligandlar	Statik almashinish sig‘imi, mg-ekv/g, 0.1 n eritmalar:		
		Cu <sup>2+</sup>	Zn <sup>2+</sup>	Ni <sup>2+</sup>
1	KFQ	5,6	5,2	4,8
2	MFQ	7,6	7,2	6,8
3	KFV	5,8	6,0	6,4
4	TKFQ	5,7	5,9	6,3
5	TKFV	8,2	7,8	7,4
6	MFV	6,4	6,0	5,6
7	KB-4*	2,1-1,8	-	2,6-3
8	Purolite-C104*	4,7	4,3	4,1

\* KB-4 va Purolite-C104 sanoat sorbentlari.

Metall ionlari sorbsiyalanish sig‘imini topish barcha sorbentlar uchun statik sharoitda  $pH_{Cu(II)}=4,2$ ,  $pH_{Zn(II)}=6,0-6,5$ , va  $pH_{Ni(II)}=5,3$  da o‘tkazildi. Metallar tuzlari (sulfatlari, xloridlari, nitratlari) dan foydalanildi. Eritmalar muhiti unversial bufer eritmasi bilan o‘rnatildi. Sorbsiya uchun 40,00 mg sorbent tortimi olinib, 10,00 ml distillangan suvda 1 soat davomida qoldirildi. So‘ngra bo‘kkan sorbent o‘rganilayotgan eritmaga (10,00 ml) solinib, termostatlangan suv hammomida 4,5 soat oralig‘ida aralashtirib turildi. So‘ngra sorbent eritmadan ajratilib, filtratning pH qiymati o‘lchandi. EMC-31PC-UV spektrofotometrida, ammiakning 25% li eritmasida Cu(II) ni ( $\lambda_{max_{Cu(II)}}=610$  nm), Zn(II) ni ( $\lambda_{max_{Zn(II)}}=538$  nm) va dimetilglioksim yordamida Ni(II)ni ( $\lambda_{max_{Ni(II)}}=445$  nm) shuningdek,  $\ell=1,0$  sm bo‘lganda dastlabki va sorbsiyadan keyingi eritmalarining optik zichligi farqi bo‘yicha komponentlar konsentratsiyasi spektrofotometrik usulda aniqlandi. Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalariga asosan yangi KFQ, MFQ, KFV, TKFQ, MFV va TKFV immobillangan ligandlar asosida olingan sorbentlarning statik almashinish sig‘imi quyidagi qatorda o‘sib boradi:




Dissertatsiyaning «Olingan immobillangan polimer ligandlar va ularning ayrim 3d-metallar bilan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi, sorbsion xossalari tadqiqoti» deb nomlangan uchinchi bobida sintez qilingan polimer ligandlar va ularning metallokomplekslarining fizik-kimyoviy xossalari IQ-spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, termogravimetrik va


differential termik analiz, kompleksometriya, spektrofotometrik tahlil hamda konduktometriya kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanib tahlil qilingan.

**Immobilangan KFQ ligandi va Cu(II), Zn(II) hamda Ni(II) ionlari bilan hosil qilgan metallokomplekslarining Raman spektroskopik tahlili.** KFQ ligandining Raman spektrida  $3128,42 \text{ cm}^{-1}$  va  $1176,01 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $\nu(\text{NH}_2)$  guruhning valent, simmetrik  $\nu_s$  va deformatsion  $\delta$  tebranishlari hamda  $1116,43 \text{ cm}^{-1}$  sohada  $\nu(\text{C-N-})$  guruhining valent  $\nu$  tebranish chastotasi kuzatildi. Shu bilan birgalikda  $2945,46 \text{ cm}^{-1}$ ,  $2828,42 \text{ cm}^{-1}$  va  $745,46 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $\text{CH}_2$ - guruhining valent assimetrik  $\nu_{as}$ , valent simmetrik  $\nu_s$  va deformatsion  $\delta$  tebranishlar chastotasi hosil bo'ldi.  $1725,93 \text{ cm}^{-1}$  va  $1519,24 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $\nu(\text{C=O})$  hamda  $-\text{COO}^-$  guruhining valent assimetri-  $\nu_{as}$  tebranishi, shu bilan bir qatorda  $828,42 \text{ cm}^{-1}$  sohada deformatsion  $\delta$  tebranish chastotasi hosil bo'ldi. Shuningdek,  $1282,58 \text{ cm}^{-1}$  sohada  $-\text{COOC}$  guruhining valent tebranish chastotalari kuzatildi (6-rasm).

KFQning Cu(II) ni sorbsiyalash natijasida olingan metallokompleksi Raman spektri 7-rasmda keltirilgan. Natijalarga ko'ra  $3195,93 \text{ cm}^{-1}$  va  $1188,11 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $-\text{NH}_2$  guruhning valent simmetrik  $\nu_s$  va deformatsion  $\delta$  tebranishlari hamda  $1116,43 \text{ cm}^{-1}$  sohada  $-\text{C-N-}$  guruhining valent  $\nu$  tebranish chastotasi kuzatildi. Shu bilan birgalikda  $2985,31 \text{ cm}^{-1}$ ,  $2895,2998 \text{ cm}^{-1}$  va  $785,82 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $-\text{CH}_2$  guruhining valent assimetrik  $\nu_{as}$ , valent simmetrik  $\nu_s$  va deformatsion  $\delta$  tebranishlar chastotasi hosil bo'ldi.  $1765,11 \text{ cm}^{-1}$  va  $1511,24 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $-\text{C=O}$  hamda  $-\text{COO}^-$  guruhining valent assimetrik  $\nu_{as}$  tebranishi,  $825,93 \text{ cm}^{-1}$  sohada deformatsion  $\delta$  tebranish chastotasi hosil bo'ldi. Shuningdek,  $1231,58 \text{ cm}^{-1}$  sohada  $-\text{COOC}$  guruhining valent  $\nu$  tebranish chastotalari kuzatildi (7-rasm).



**6-rasm. KFQning Raman spektri.**




**7-rasm. KFQ ning Cu(II) bilan hosil qilgan kompleksining Raman spektri.**


KFQning Zn(II) ni sorbsiyalash natijasida olingan kompleksining Raman spektri 7-rasmda keltirilgan, IQ-spektri natijalariga ko'ra,  $3268,94 \text{ cm}^{-1}$  va  $1192,50 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $\nu(\text{NH}_2)$  guruhning valent simmetrik  $\nu_s$  va deformatsion  $\delta$  tebranishlari hamda  $1182,82 \text{ cm}^{-1}$  sohada  $\nu(\text{C-N-})$  guruhining valent  $\nu$  tebranish chastotasi kuzatildi. Shu bilan birgalikda  $2935,29 \text{ cm}^{-1}$ ,  $2865,33 \text{ cm}^{-1}$  va  $765,82 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $\nu(\text{CH}_2)$  guruhining valent assimetrik  $\nu_{as}$ , valent simmetrik  $\nu_s$  va deformatsion  $\delta$

tebranishlar chastotasi hosil bo'ldi.  $1745,94 \text{ cm}^{-1}$  va  $1516,24 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $\nu(\text{C}=\text{O})$  hamda  $\nu(\text{COO}^-)$  guruhining valent assimetrik  $\nu_{\text{as}}$  tebranish shu bilan bir qatorda  $835,29 \text{ cm}^{-1}$  sohada deformatsion  $\delta$  tebranish chastotasi hosil bo'ldi. Shuningdek,  $1233,58 \text{ cm}^{-1}$  sohada  $\nu(\text{COOC})$  guruhining valent  $\nu$  tebranish chastotalari kuzatildi.

KFQ ligandining Ni(II) ni sorbsiyalash natijasida olingan kompleks Raman (HORIBA Scientific) spektri 13-rasmda keltirilgan, IQ-spektri natijalariga ko'ra  $3461,88 \text{ cm}^{-1}$  va  $1196,91 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $\nu(\text{NH}_2)$  guruhning valent simmetrik  $\nu_s$  va deffarmatsion  $\delta$  tebranishlari hamda  $1146,41 \text{ cm}^{-1}$  sohada  $\nu(\text{C-N-})$  guruhining valent  $\nu$  tebranish chastotasi kuzatildi.



**8-rasm. KFQ ning Zn(II) bilan hosil qilgan kompleksining Raman spektri.**



**9-rasm. KFQ ning Ni(II) bilan hosil qilgan kompleksining Raman spektri.**

**7-jadval**

**KFQ ligandi va uning Cu(II), Zn (II), Ni(II) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining Raman-spektrlaridagi yutilish chastotalari,  $\text{cm}^{-1}$**

Tebranish tasniflari	KFQ	KFQ+Cu(II)	KFQ+Zn(II)	KFQ+Ni(II)
$\nu(\text{NH})$	3128,42	3195,93	3268,94	3461,88
$\nu_s(\text{CH}_2)$	2945,46	2985,31	2935,29	2967,81
$\nu_{\text{as}}(\text{CH}_2)$	2828,42	2895,29	2865,33	2861,18
$\nu(\text{C}=\text{O})$	1725,93	1765,11	1745,94	1738,83
$\nu(-\text{COC}=\text{O})$	1282,58	1231,58	1233,58	1283,64
$\nu_{\text{as}}(-\text{COO}^-)$	1519,24	1511,24	1516,24	1533,21
$\nu(\text{C-N})$	1116,43	1116,43	1182,82	1146,41
$\delta(\text{NH})$	1176,01	1188,11	1192,50	1196,91
$\delta(\text{CH}_2)$	745,46	785,28	765,82	735,55
$\delta(-\text{COO}^-)$	828,42	825,93	835,29	861,87

Shu bilan birgalikda  $2967,81 \text{ cm}^{-1}$ ,  $2861,18 \text{ cm}^{-1}$  va  $735,55 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $\nu(\text{CH}_2)$  guruhining valent assimetrik  $\nu_{\text{as}}$ , valent simmetrik  $\nu_s$  va deformatsion  $\delta$  tebranishlar chastotasi hosil bo'ldi.  $1738,83 \text{ cm}^{-1}$  va  $1533,21 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $\nu(\text{C}=\text{O})$  hamda  $\nu(\text{COO}^-)$  guruhining valent assimetrik  $\nu_{\text{as}}$  tebranish shu bilan bir qatorda

861,87  $\text{sm}^{-1}$  sohada deffarmatsion  $\delta$  tebranish chastotasi hosil bo'ldi. Shuningdek, 1283,64  $\text{sm}^{-1}$  sohada  $\nu(\text{COOC})$  guruhining valent  $\nu$  tebranish chastotalari kuzatildi.

7-jadvaldan ko'rinib turibdiki, KFQ polimer ligandidagi  $\nu(\text{NH})$  va  $\delta(\text{C=O})$  tebranish chastotalari nisbatan boshqa sohalarga siljigan. Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkin, KFQ ligandidagi ikkilamchi amin va karbonil guruhlari metall ionining koordinatsiyalanishini ta'minlaydi va xelat xalqa hosil bo'ladi.

### 8-jadval

#### Sintez qilingan koordinatsion birikmalarining konsentratsion barqarorlik doimiyliglarini aniqlash natijalari

Sorbent		Metall ionlari		
		Cu (II)	Zn (II)	Ni (II)
KFQ	$\text{pH}_{\text{maqbul}}$	3,4-3,7	6,2-6,5	4,2-4,5
	$\text{lgK}_{\text{barqaror}}$	6,90	6,56	6,44
MFQ	$\text{pH}_{\text{maqbul}}$	3,8-4,1	6,5-6,7	4,5-4,9
	$\text{lgK}_{\text{barqaror}}$	8,96	8,71	8,59
KFV	$\text{pH}_{\text{maqbul}}$	4,2-4,7	6-6,5	4,2-4,5
	$\text{lgK}_{\text{barqaror}}$	7,55	7,42	7,14
TKFQ	$\text{pH}_{\text{maqbul}}$	4,3-4,9	6-6,5	4,2-4,5
	$\text{lgK}_{\text{barqaror}}$	7,24	7,10	6,99
MFV	$\text{pH}_{\text{maqbul}}$	2,5-3	6,5-7	4,2-4,5
	$\text{lgK}_{\text{barqaror}}$	9,64	9,46	9,38
TKFV	$\text{pH}_{\text{maqbul}}$	3,5-4	6,5-7	4,2-4,5
	$\text{lgK}_{\text{barqaror}}$	7,85	7,61	7,46

Sintez qilingan kompleks hosil qiluvchi polifunksional immobillangan ligandlarning ba'zi d-metallari bilan koordinatsion birikmalarining barqarorlik doimiyliglarini aniqlash uchun potensiometik titrlash usulidan foydalanildi. O'rganilgan metallar ionlarining xelatli immobillangan ligandlar bilan hosil qilgan koordinatsion birikmalarining hisoblangan barqarorlik doimiyliglari 8-jadvalda keltirilgan. Metallarning immobillangan ligandlar bilan kompleks hosil qilishining maqbul muhit ko'rsatkichi va konsentratsion barqarorlik doimiyliglari keltirilgan 8-jadvaldan ko'rinib turibdiki, metall ionlarining bir xil immobillangan ligandlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining barqarorligi berilgan metall komplekslari uchun  $\text{Ni(II)} < \text{Cu(II)} > \text{Zn(II)}$  Irving-Vilyams qatoriga mos keladi.

**KFV polimer ligandi reaksiyon qobilyatining kvant kimyoviy tahlili.** KFV molekulasi reaksiyon qobilyatini kvant-kimyoviy hisoblash dasturlari Avogadro, Hyper Chem 8.01, Asselrys MS Modeling 3.0.1 cheklangan Semi-empirical (UHF) usuli orqali, SCF-MO qo'llagan holda yarim empirik AM1, MNDO, PM3, RM1 va MINDO3 metodi bilan Intel Pro Pentium 1.40 GGs kompyuterida hisoblashlar olib borildi. Molekula geometriyasini optimallashtirish Polak-Ribiere (Conjugate gradient) algoritmini qo'llagan holda amalga oshirildi. Ushbu metodlar molekulaning umumiy energiyasini va molekulyar orbitallarning elektron zichliklarini, hamda o'rganilayotgan molekulaning geometrik optimizatsiyasini amalga oshirish imkonini yaratdi. Muhim hisoblanadigan elektron

xarakteristikalaridan biri bu Malliken bo‘yicha atomlardagi effektiv zaryadlar (CHARGES) va sistemaning to‘liq energiyasidir (TOTAL ENERGY) (9-jadval).

Kvant-kimyoviy beshta yarim empirik metodlar natijalariga ko‘ra xulosa qilib shuni aytish mumkinki, KFV molekulasida manfiy effektiv zaryadning yuqori qiymatlari C=O, C-O-C, triazin xalqadagi azot va ikkilamchi amin =N-H guruhlaridagi kislorod va azot atomlarida ekanligi ushbu atomlarning metall bilan koordinatsion bog‘ bilan bog‘lanib, to‘rt, besh va olti a‘zoli xelat turdagi komplekslarni hosil qilishi mumkinligidan dalolat beradi.


### 9-jadval

#### KFV polimer molekulasidagi donor atomlarning effektiv zaryadi qiymatlari

Atomlar	AM1, eV	MNDO, eV	PM3, eV	RM1, eV	MINDO3, eV
$\delta_q O^1_{(C-O)}$	-0,359	-0,345	-0,315	-0,370	-0,483
$\delta_q N^1_{(N)}$	-0,351	-0,487	-0,094	-0,534	-0,277
$\delta_q O^1_{(C=O)}$	-0,470	-0,458	-0,449	-0,508	-0,626
$\delta_q O^1_{(O-H)}$	-0,354	-0,350	-0,313	-0,360	-0,494
